

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“MOLIYAVIY TAHLIL VA AUDIT” KAFEDRASI

Qo'lyozma huquqida
UDK: 658.1(575.1)

XASHIMOVA SEVARA SULTONXODJA QIZI

AKSIONERLIK JAMIYATLARIDA AUDITORLIK TEKSHIRUVINI
TAKOMILLASHTIRISH

70410102 – “Audit” (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)
mutaxassisligi bo'yicha

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:




i.f.n., dotsent Xodjaeva M.H.

Toshkent – 2023

Magistrlik dissertasiya ishi "Moliyaviy tahlil va audit" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.

14

sonli bayonnoma « 26 » aprel 2023 y.

Kafedra mudiri:	DSc., professor Xajimuratov N.Sh.		imzo	sana
Ilmiy rahbar:	i.f.n., dotsent Xodjaeva M.H.		imzo	sana
Magistr:	Xashimova S.S.		imzo	sana

Dissertatsiya "Moliya va buxgalteriya hisobi" fakultetida 2023-yil
« 18 » may 2023 yil da
№ MUA-01/1 raqami bilan ro'yxatga olindi.

ANNOTATSIYA

Mazkur dissertatsiya ishida iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarida auditorlik tekshiruvini o'tkazishni takomillashtirish masalalari yoritilgan. O'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida O'zbekiston auditorlik amaliyotida aksiyadorlik jamiyatlarida auditorlik tekshiruvlarini rejalashtirish, o'tkazish va tekshiruv natijalarini umumlashtirish jarayonida o'z yechimini kutayotgan qator muammolar mazmuni tavsiflanib, ularni ijobiy hal etish yuzasidan amaliy tavsiyalar shakllantirgan. Shuningdek, auditorlik tekshiruvi davomida axborot tizimlaridan foydalanish xususiyatlari va afzalliklari ko'rib chiqilgan. Ish yakunida mavzu doirasida ilmiy va amaliy xulosalar umumlashtirilib, tegishli tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Auditorlik tekshiruvlari, auditorlik xizmati, auditor, auditorlik tashkiloti, auditorlik tekshiruvi buyurtmachisi, auditorlik xulosasi, auditorlik tekshiruvi natijalari, auditning xalqaro standartlari (AXS), audit jarayonlarini avtomatlashtirish, auditda axborot tizimlari, auditni raqamlashtirish, auditorlik faoliyatida axborot texnologiyalari.

ABSTRACT

In this dissertation work, the issues of improving the auditing of joint-stock companies in the conditions of modernization of the economy are covered. Based on the results of the research, the content of a number of problems awaiting their solution in the process of planning, conducting and summarizing the results of audits in joint stock companies in the audit practice of Uzbekistan was described, and practical recommendations were formulated for their positive solution. Also, the features and advantages of using information systems were considered during the audit. At the end of the work, scientific and practical conclusions are summarized within the topic, and relevant recommendations are given.

Key words: Audit inspections, audit service, auditor, audit organization, audit client, audit conclusion, audit results, audit international standards (IAS), audit process automation, audit information systems, audit digitization, information technologies in audit activities.

MUNDARIJA

Annotatsiya.....	3
Mundarija.....	5
Keltirilgan jadvallar ro‘yxati.....	6
Keltirilgan rasmlar ro‘yxati.....	7
I BOB. KIRISH.....	8
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	8
1.2. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.....	10
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	10
1.4. Tadqiqot obyekti va predmeti.....	11
1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.....	11
1.6. Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	11
II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....	13
2.1. Adabiy manbalarda keltirilgan tadqiqotlar natijalari.....	13
2.2. Tadqiqotning normativ-uslubiy ta’minlanganlik holati tahlili.....	26
III BOB. TADQIQOT METODOLOGIYASI.....	36
3.1. Ma’lumotlar manbalari.....	36
3.2. Tadqiqot dizayni.....	36
3.3. Tadqiqotda qo’llanilgan uslublar.....	37
3.4. Tadqiqotni o’tkazish uchun zarur sharoitlar.....	37
3.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi....	37
3.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	38
IV BOB. TADQIQOT TAHLILI VA NATIJALAR.....	39
4.1. Auditorlik tekshiruvini rejalashtirishning amaldagi holati va uning uslubiy muammolari.....	39
4.2. Auditorlik tekshiruvini o’tkazish amaliyoti va uni takomillashtirish yo’nalishlari.....	55
4.3. Auditning xalqaro standartlari asosida auditorlik tekshiruvini yakunlash va xulosa berishni takomillashtirish.....	66
4.4. Xalqaro amaliyotda auditorlik tekshiruvini raqamlashtirish jarayoni va uni O’zbekiston amaliyotida qo’llash masalalari.....	78
V BOB. XULOSA VA TAKLIFLAR.....	90
5.1. Tadqiqotning asosiy ilmiy - amaliy yangiligi va natijalari.....	90
5.2. Tadqiqot natijasida keltirilgan asosiy tavsiya va takliflar.....	91
5.3. Kelgusi tadqiqotchilar uchun takliflar.....	93
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	94
ILOVALAR.....	99

I BOB. KIRISH

1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi

Respublikamizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijasida barcha sohalarda tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bunday islohotlar buxgalteriya hisobi, audit va iqtisodiy tahlil sohasida ham jadal davom ettirilmoqda. Bugungi kunda jahonning zamonaviy auditorlik amaliyotida tekshiruvlarning sifati va xalqaro miqyosda tan olinishini ta'minlash uchun ularni xalqaro audit standartlariga muvofiq zamonaviy dasturiy vositalardan foydalangan holda tashkil etish talab etilmoqda.

Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlarini transformasiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilash maqsadida tizimli ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonining¹ qabul qilinishi mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichi 3-Renessans davrining boshlanishini belgilab berdi. Qabul qilingan mazkur farmonda belgilanganidek, "milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash, mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish hamda investitsiyalardan samarali foydalanish hamda eksport hajmlarini oshirish bo'yicha, "pastdan-yuqoriga" tamoyili asosida, yangi tizimni yo'lga qo'yish" kabi ustuvor vazifalarning belgilanishi investitsiya siyosatini amalga oshirish darajasi, ularning moliyaviy manbalarini izlab topish, tizim faoliyatini yanada takomillashtirish, boshqarishga oid qarorlarni qabul qilish hamda ulardan samarali foydalanishni yaxshilash

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni. <https://president.uz/uz/lists>